

**ZOHIR VA BOTIN UYG‘UNLIGI: NAVOIY G‘AZALLARIDA ISHQ VA NAFS FENOMENI****Zarfullayeva Parizod***Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti**2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Alisher Navoiy g‘azallarida ishq va nafs fenomenining badiiy-estetik va falsafiy mohiyati tizimli ravishda tadbiq etildi. Maqolaning asosiy maqsadi shoir lirikasida ushbu tuyg‘ularning ilohiy va majoziy qatlamlari o‘rtasidagi ichki uyg‘unlikni ochib berishdan iborat. Izlanish jarayonida tahliliy, qiyosiy va konseptual yondashuv metodlaridan foydalanildi. Natijada shoir ijodida ishq va nafsni yengish insonni komillikka yetaklovchi ruhiy kuch sifatida tahlil qilinishi aniqlandi. Shuningdek, ilohiy joziba orqali tasavvufiy g‘oyalar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangani asoslab berildi. Yozma ishning ilmiy yangiligi ishq va nafs konsepsiyasining zohiriy (majoziy) va botiniy (ilohiy) birlikda kompleks va sistematik tahlil etilganidadir.*

**Kalit sozlar:** *Alisher Navoiy, ishq va nafs konsepsiyasi, g‘azal, tasavvuf, badiiy obraz, mumtoz adabiyot, lirika.*

**Аннотация:** *В данной статье системно исследуется художественно-эстетическая и философская сущность феномена любви в газелях Alisher Navoiy. Основная цель исследования заключается в раскрытии внутренней гармонии между божественным и земным (метафорическим) уровнями любви в лирике поэта. В ходе исследования были использованы аналитический, сравнительный и концептуальный методы. В результате установлено, что в творчестве поэта любовь трактуется как духовная сила, ведущая человека к нравственному и духовному совершенству. Кроме того, обосновано, что через божественное притяжение суфийские идеи выражены с высоким художественным мастерством. Научная новизна исследования состоит в комплексном и системном анализе концепции любви в единстве её внешнего (метафорического) и внутреннего (божественного) аспектов.*

**Ключевые слова:** *Alisher Navoiy, концепция любви, газель, суфизм, художественный образ, классическая литература, лирика.*

**Annotation:** *This article systematically examines the artistic-aesthetic and philosophical essence of the phenomenon of love in the ghazals of Alisher Navoiy. The main objective of the study is to reveal the internal harmony between the divine and metaphorical (earthly) layers of love in the poet's lyrical works. The research employs analytical, comparative, and conceptual methods. The findings demonstrate that in the poet's творчество love is*

*interpreted as a spiritual force leading a person toward moral and spiritual perfection. Furthermore, it is substantiated that Sufi ideas are expressed with high artistic mastery through divine attraction. The scientific novelty of the study lies in the comprehensive and systematic analysis of the concept of love in the unity of its external (metaphorical) and internal (divine) dimensions.*

**Keywords:** *Alisher Navoiy, concept of love, ghazal, Sufism, artistic image, classical literature, lyric poetry.*

Bugungi globallashuv va ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida milliy adabiy merosni chuqur o‘rganish va uni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘un holda talqin etish dolzarb vazifalardan biridir. Xususan, Alisher Navoiy ijodini yangicha konseptual yondashuv asosida tadqiq etish nafaqat filologik, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy va adabiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish ma’naviy taraqqiyotimizning mustahkam poydevoridir.” Ushbu fikr mumtoz adabiyot namoyondalari, xususan, Alisher Navoiy merosini zamonaviy ilmiy talqin asosida o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi. Darhaqiqat, Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotining yuksak bosqichini tashkil etadi. Uning ijodida ishq va nafs tushunchasi tasavvuf falsafasi bilan uzviy bogliq. Ishaq – Haqning zuhuriga sabab bo‘ladigan dastlabki sifat. Tasavvufda Husni Mutlaqqa bo‘lgan shiddatli sevgi. Haqning boshlang‘ichi va oxiri bo‘lmasinidek, Haq tajalliysining ham ibtido va intihosi yo‘qdir. Ishaq Allohdan ato etilgan rahmoniy bir ulfat. Ulfatdoshlik tuyg‘usi esa har bir ruh sohibiga xos. Navoiy yozadi:

Havoyi ishqing aro o‘zga olamim bordur,

Ki ashkim anjum erur, oh dudi aflokim.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 425, 4)

Ishaq ikki xildir: haqiqiy va majoziy. Haqiqiy ishq – Allohga, majoziy ishq esa Alloh yaratgan narsalarga, odam va olam go‘zalligiga oshiqlik erur.

Navoiy Ollohga bo‘lgan muhabbatini shunday ta’riflaydi:

“Zohid uchmog‘ni etar vasfu men ul oy ko‘yin,

Gulshani xuld anga, ul guli ruxsor manga.

Telba andog‘ki pari jilvasidan oldarag‘ay,

O‘t solur har taraf ul turfa namudor manga.”

Mazkur baytda, “Zohid jannatni maqtaydi, mayli jannat unga-yu, u yuzi gul menga bo‘lsin. Devona pari jilvasini ko‘rganda dovdirab qolganidek, u go‘zalning ko‘rinishi menga har tarafdin o‘t soladi” - deydi shoir. Navoiy go‘zallik va majoziy zavqlardan ortiqcha ilhom olmaydi, uning ishtiyoqi butunlay Ollohning sevgisiga qaratilgan. Zohidga jannat nasib etilsa

ham, shoirning qalbi faqat yaratganning vasliga oshiq. Har tarafdan olov singari kelayotgan Haqqa oshuftalik uni ruhiy tozalik va samimiyatga yetaklaydi. Shoir yana bir o‘rinda shunday deydi:

“Kofiri ishq o‘lg‘an avlo demasa iymon so‘zin,  
Xo‘b emas tasbih tori rishtai zunnor aro.”

Bu baytda ishq kofiri bo‘lgan odam iymon so‘zini so‘zlamagani yaxshiroq, zunnor ipi ichida tasbih torining bo‘lishi yaxshi emas ya’ni Navoiy bu tuyg‘uni tushunmagan yoki qalbi uni qabul qilmagan odam, iymon haqida gapirsa ham bu so‘zlar samimiy bo‘lmaydi demoqchi. Keyingi misrada esa zunnor ipi tor bo‘lsa, tasbihning ishlashi qiyin va noqulay bo‘ladi. Bu hayotiy va ruhiy tasvir orqali shoir shuni aytadiki, agarda insonda ruhiy tayyorgarligi va unda samimiyat bo‘lmasa yuzaki qilingan rasmiy ibodatlar hech narsani anglatmaydi. Bu yerda ma’naviy poklik va ilohiy rag‘bat qalbni yuksaltiruvchi omil sifatida namoyon boladi.

Ibrohim Haqqulovning “Navoiy lirikasida ishq — bu faqat hissiy kechinma emas, balki tasavvufiy tafakkur ifodasidir” degan fikri Alisher Navoiy ijodini talqin qilishda muhim nazariy kalit vazifasini bajaradi. Mazkur qarash avvalo bu tushunchani oddiy romantik tuyg‘u darajasidan yuksak ma’naviy-falsafiy bosqichga ko‘taradi. Chunki Navoiy g‘azallarida yor, hijron, visol, ko‘z va zulfi kabi an’anaviy obrazlar ko‘rinsa-da, ular faqat tashqi — majoziy ma’noni emas, balki chuqur botiniy qatlamni ham anglatadi. Shu bois ishqni faqat insoniy muhabbat sifatida talqin qilish Navoiy poetikasining mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Tasavvuf tafakkurida ishq bu Haqqa yetishish yo‘li, nafsni poklash jarayoni va ruhiy kamolot bosqichidir.

Nafs – o‘zlik, ruh, zot. Insonni to‘g‘ri va ezgu yo‘llardan ozdiruvchi, gunoh va yomonliklarga yetaklovchi mayl va istaklar nafsga nisbat beriladi. Nafsga bo‘ysungan kishining nafsni aqlga emas, shaytonga itoat qiladi. “Nafsini tanigan Robbisini taniydi” hadisi ham uning murakkab xilqat ekanini bildiradi. Navoiy yozadi:

Har kishi nafs itligidin aylasa o‘zini xalos,  
Vahsh xaylin aylar til dasht uzra Majnunvor sayd.  
 (“Badoye’ ul-vasat”, 119, 7)

Tasavvuf ahli yetti nafs borligini e’tirof etadilar: 1. Nafsi ammora – yomon va gunoh ishlarni qilishga buyuradigan hayvoniy nafs, “Shubhasiz, nafs yomonlikka buyuradi” (“Yusuf” surasi, 53-oyat). 2. Nafsi lavvoma – malomat qiladigan, koyiydigan va yomonlaydigan nafs qilgan yomonligi natijasida pushaymon boladigan, tavba qiladigan, hisobga tortadigan nafs, vijdon azobi. 3. Nafsi mulhima – ilhom va kashfga mazhar bolgan nafs. 4. Nafsi mutmainna – qanoatlangan, huzur va sukunga qovushgan, fazilatlariga oralgan nafs. 5. Nafsi roziyya – oz shaxsiy irodasi va istagidan voz kechgan, jaloliy va jamoliy

tajalliyarlarni kongilxushlik bilan kutib oladigan, rizo maqomiga erishgan nafs. 6. Nafsi marziyya – Alloh rozi bolgan nafs. Bu maqomda Alloh roziy, banda marziyya, ozora rizo hoati. 7. Nafsi komila yoki “nafsi zakiyya” – barcha kamol sifatlarini qozonib, insonlarni irshod qilish maqomiga yuksalgan, komil, toza va sof nafs, komil inson sifati.

Ilmiy maqola natijalari shuni ko‘rsatdiki, Alisher Navoiyning g‘azallarida ruhiy muhabbat nafaqat inson qalbining olijanob his-tuyg‘ularini ochib beruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi, balki insonni ma‘naviy va axloqiy kamolotga yetaklaydi. Poetik obrazlar orqali shoirning tasavvufiy qarashlari, ruhni poklash va Olohga yaqinlashish g‘oyalari ifodalanadi. Shu bilan birga, maqolaning ilmiy yangiligi uning zamonaviy adabiyotshunoslikda yetarlicha o‘rganilmagan ruhiy muhabbat konsepsiyasini yeru osmon, ya‘ni dunyoviy va ilohiy jihatlarni birlashtirib kompleks tarzda tadqiq etishidadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Navoiy, A. (1991). Xamsa. Toshkent: Sharq.
2. Navoiy, A. (2009). Devon ul-lug‘at-it-turk. Toshkent: Fan.
3. Jaloliddin Rumi. (2005). Masnaviy Ma‘navi. Toshkent: G‘afur G‘ulom.
4. Sulstonov, M. (2010). Alisher Navoiy gazallari va tasavvufiy lirika. Toshkent: Akademnashr.
5. Mirzoev, B. (2015). O‘zbekiston mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Sharq.
6. Shamsiddinov, T. (2018). Tasavvuf va badiiy obraz: Navoiy gazallari misolida. Toshkent: Fan.
7. Namozov, R. (2020). O‘zbek mumtoz adabiyotida ruhiy muhabbat konsepsiyasi. Toshkent: Ilm-Ziyo.
8. Alisher Navoiy. (2016) “G‘azal gulzoridan 100 otashin gul”, “Yangi asr avlodi”.